The Journal of ECONOMICS and PEDAGOGY

JEP

*Maqola turi (Maqola, Pedagogika fanlari, Adabiyotlar sharhi)*

# Tarix fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar

**Mirzayev Avazbek**[1*]

[1] Andijon davlat universiteti; Andijon; O‘zbekiston; e-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru.
* Yozishmalar: e-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru; Tel.:+998916120718 (170100; Andijon viloyati, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy; Andijon davlat universiteti; Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); Andijon; O‘zbekiston)

**Abstrakt**

Ushbu maqolada tarix fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilingan. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida tarix fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o‘qitish va tadqiqotchilik metodlarining imkoniyatlari o‘rganilgan. Zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, muammolarni hal etish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlangan. Maqolada tarix ta’limida raqamli vositalardan foydalanishning afzalliklari hamda zamonaviy pedagog oldidagi vazifalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarix ta’limi, zamonaviy yondashuv, innovatsion texnologiya, interfaol metod, raqamli ta’lim, kompetensiya, tarixiy tafakkur.

*Type of the Paper (Article, Pedagogical Sciences, Review)*

# Modern approaches to teaching history subjects

**Mirzayev Avazbek**[1*]

[1] Andijan State University, Andijan; Uzbekistan; e-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru.
* Correspondence: e-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru; Tel.:+998916120718 (17010029 Universitet Street, Andijan City, Andijan Region; Andijan State University; Associate Professor, Department of World History; PhD in Historical Sciences; Andijan; Uzbekistan)

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich

Received: 19.07.2026
Revised: 04.09.2026
Accepted: 22.10.2026
Published: 22.10.2026

**Copyright:** © 2026 by the authors. Submitted for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license.

**Abstract**

This article analyzes the importance of modern approaches in teaching history, their role and effectiveness in the educational process. In the context of globalization and digitalization, improving history teaching methods, applying innovative pedagogical technologies, and developing students’ historical thinking have become important tasks. The study examines the potential of competency-based learning, interactive methods, information and communication technologies, project-based learning, and research approaches. The results show that modern approaches contribute to the development of students’ independent thinking, analytical skills, ability to work with historical sources, and

capacity to make scientific conclusions. The article also highlights the advantages of using digital resources in history education and the requirements for modern history teachers.

**Keywords:** history education, modern approaches, innovative technologies, interactive methods, digital learning, competence, historical thinking.

## 1. Kirish (Introduction)

Tarix fani insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarini, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganuvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida tarix fanini o‘qitishning mazmuni va metodlarini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tarix fanidan ta’lim-tarbiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda tarixiy voqealarni xolis baholash ko‘nikmalarini hosil qilish innovatsion pedagogik texnologiyalarini optimallashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”[1.39 ] ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada umum ta’lim maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkurini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, tarix fanidan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifat hamda fazilatlarni rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli umum ta’lim maktablarida o‘quvchilarning bilimlarini rivojlantirishda tarix fanini o‘qitishda yangi zamonaviy yondashuvlarni olib kirish va metodikalarni takomillashtirish zaruratini taqozo qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida tarix fanini o‘qitishning asosiy maqsadi nafaqat o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazish, balki ularda mustaqil fikrlash, voqea va hodisalarga tanqidiy yondashish, tarixiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir. Bugungi kunda tarix fani o‘qituvchisidan faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini tashkil qiluvchi, o‘quvchilarni izlanishga undovchi va ularning ijodiy faoliyatini boshqaruvchi pedagog bo‘lish talab etiladi.

## 2. Materialar va usullar (Materials and Methods)

Tarix fani ta’limida zamonaviy yondashuvlarning eng muhim jihatlaridan biri shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanadi. Ushbu yondashuvda har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari va bilim darajasi hisobga olinadi. O‘qituvchi barcha o‘quvchilarga bir xil usulda bilim berishdan ko‘ra, ularning mustaqil rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Natijada o‘quvchilar tarixiy bilimlarni oddiy yodlash orqali emas, balki tushunish va amaliy faoliyat orqali egallaydilar.

Tarix fanlarini o‘qitishda quydagi yondashuvlar va metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarix darslarida tadqiqotchilik yondashuvini qo‘llash ham katta samaradorlik beradi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar kichik ilmiy izlanishlar olib boradilar, tarixiy manbalarni o‘rganadilar, ma’lumotlarni tahlil qiladilar va o‘z xulosalarini shakllantiradilar. Masalan, mahalliy tarixni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘z hududidagi tarixiy obidalar, mashhur shaxslar yoki muhim voqealar haqida mustaqil ma’lumot to‘plashlari mumkin. Bu jarayon ularda tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi ham tarix fanida samarali metodlardan biridir. Loyiha metodi o‘quvchilarga ma’lum bir tarixiy mavzu bo‘yicha mustaqil ish olib borish, ma’lumot yig‘ish, uni qayta ishlash va taqdim etish imkonini beradi. Masalan, "Buyuk ipak yo‘li va uning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni", "O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar", "Mustaqillik davri tarixi" kabi mavzularda loyihalar tayyorlash orqali o‘quvchilar tarixiy jarayonlarni chuqurroq o‘zlashtiradilar.

Zamonaviy tarix ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Internet resurslari, elektron kutubxonalar va raqamli arxivlar o‘quvchilarga katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar o‘qituvchiga dars jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi. [2.70 ]

Virtual muzeylar tarix fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. An’anaviy darslarda o‘quvchilar barcha tarixiy joylarga borish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin. Virtual ekskursiyalar yordamida esa dunyoning turli hududlaridagi muzeylar, tarixiy yodgorliklar va madaniy meros obyektlarini masofadan turib o‘rganish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Tarix fanini o‘qitishda media savodxonlik ham muhim ko‘nikmalardan biriga aylanmoqda. Hozirgi axborot oqimi sharoitida o‘quvchilar turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘rganishlari zarur. [3.4] Tarixiy voqealar haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘quvchilar manbalarning ishonchliligini baholash, fakt va fikrni farqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak.

Tarix darslarida tanqidiy fikrlash texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga katta yordam beradi. Tanqidiy fikrlash tarixiy voqealarni bir tomonlama emas, balki turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni talab qiladi. [4.68] Masalan, ma’lum bir tarixiy shaxs faoliyatini baholashda uning davri, siyosiy sharoitlari va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri hisobga olinadi.

Zamonaviy tarix ta’limining yana bir muhim yo‘nalishi fanlararo integratsiyadir. Tarix boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganilganda o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi. Geografiya bilan bog‘liq holda tarixiy hududlar va migratsiya jarayonlari, iqtisodiyot bilan bog‘liq holda savdo va ishlab chiqarish rivoji, adabiyot bilan bog‘liq holda tarixiy asarlar tahlil qilinishi mumkin.

O‘qituvchining zamonaviy pedagogik kompetensiyasi ham tarix fanini samarali o‘qitishda asosiy omillardan biridir. Zamonaviy o‘qituvchi axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, yangi pedagogik metodlarni bilishi, ilmiy izlanish olib borishi va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnata olishi kerak. [5.105].

## 3. Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarix fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi yuqori bo‘ldi.

Zamonaviy yondashuvlarning asosiy natijalaridan biri o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishidir. Tarixiy voqealarni faqat tayyor ma’lumot sifatida qabul qilish o‘rniga, o‘quvchilar sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, turli manbalarni solishtirish va o‘z fikrlarini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Interfaol metodlardan foydalanish dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirdi. Guruhli ishlash, munozara va taqdimotlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarning fikrlarini tinglash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. [6.92]

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimedia vositalaridan foydalanish tarixiy jarayonlarni tushuntirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, xaritalar, tarixiy suratlar,

videolavhalar va virtual ekskursiyalar o‘quvchilarning tarixiy tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. [7.46] Elektron kutubxonalar va internet manbalari yordamida o‘quvchilar qo‘shimcha ma’lumotlarni izlash, ilmiy materiallarni o‘rganish va kichik tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitish usuli tarix fanida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi. Loyihalar tayyorlash jarayonida o‘quvchilar axborot yig‘ish, uni tahlil qilish, xulosa chiqarish va natijalarni taqdim etish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydilar.

Tarix ta’limida muammoli vaziyatlardan foydalanish ham samarali natijalar berdi. Muammoli savollar orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni chuqurroq tahlil qilishga, turli omillarni hisobga olishga va mustaqil qaror chiqarishga o‘rganadilar.

## 4. Natijalarni muhokama qilish (Discussion)

Olingan natijalar tarix fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda. Chunki bugungi o‘quvchi faqat ma’lumotni yod oluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va amaliyotda qo‘llay oluvchi shaxs sifatida shakllanishi kerak.

An’anaviy ta’lim metodlari tarixiy bilimlarni yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, zamonaviy ta’lim talablari o‘qitish jarayoniga yangi metodlarni kiritishni talab qilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi tarix fanini o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Zamonaviy yondashuvlarning afzalligi shundaki, ular o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi. O‘quvchi tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda izlab topuvchi va tahlil qiluvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Biroq zamonaviy metodlarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida texnik imkoniyatlarning bir xil emasligi, ayrim pedagoglarning yangi texnologiyalardan foydalanish tajribasi yetarli emasligi kabi omillar mavjud. Shu sababli tarix fani o‘qituvchilarining malakasini muntazam oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha amaliy seminarlar tashkil etish va ta’lim jarayonini raqamlashtirish muhim vazifalardan biridir.

## 5. Conclusions

Tarix fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bugungi ta’lim tizimining muhim talablaridan biridir. Tarix fani nafaqat o‘tmish voqealarini o‘rgatuvchi fan, balki yosh avlodning dunyoqarashi, tarixiy tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim ta’lim vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarix darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli vositalar va tadqiqotchilik yondashuvlaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal etish va tarixiy jarayonlarga xolis baho berish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Zamonaviy tarix ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarga ko‘plab tarixiy ma’lumotlarni yod oldirish emas, balki ularda tarixiy hodisalarni tushunish, sabab va oqibatlarni aniqlash hamda olingan bilimlardan hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tarix fanini o‘qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Elektron resurslar,

virtual muzeylar, raqamli xaritalar va multimedia vositalari o‘quvchilarning tarixiy tasavvurlarini kengaytiradi.

Shuningdek, loyiha asosida ta’lim, muammoli o‘qitish va manbalar bilan ishlash metodlari o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kelajakda tarix fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari, virtual reallik vositalari va individual ta’lim platformalaridan foydalanish yanada kengayishi kutilmoqda. Bu esa tarix ta’limining sifatini oshirish va zamonaviy talablarga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tarix fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi va tarixiy ongni shakllantiruvchi muhim omildir.

**Muallif haqida ma’lumot:**

**Mirzayev Avazbek** ORCID: https://orcid.org/0009-0002-1218-4153б E-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru, Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, tarıx fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Andijon Davlat Universiteti, O‘zbekiston, 170100, Andijon viloyati, Andijon shahrı, Universitet ko‘chasi, 129-uy, Tel.: +998916120718.

**About the Author:**

**Avazbek Mirzayev**, ORCID: https://orcid.org/0009-0002-1218-4153, E-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru; Associate Professor, Department of World History; PhD in Historical Sciences; Andijan State University, 129 Universitet Street, Andijan City, Andijan Region, 170100, Uzbekistan; Tel.: +998916120718.

## References

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2022. –B.39. www.lex.uz

[2] M. Abdullayev. Uzluksiz ta’limda tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar nomli qo‘llanma. UO‘K: 378.081.43:004(075.8) “Omadbek print number one” Andijon: 2026. –B.70

[3] Potter, W. J. Media Literacy. 11th ed. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2026. –B.4

[4] B. Abdullayev Ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish. Toshkent. 2021. –B.68

[5] I. Safarov Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tarix fanini o‘qiyish metodikasi. Toshkent. 2021. –B.105

[6] J.Jalolov Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2023. –B.92

[7] A.Abduqodirov, A. Pardayev. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009. – B.46.

**Disclaimer/Publisher’s Note:** The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.

**Nashriyot qaydi:** Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma’lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo‘lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g‘oyalar, usullar, ko‘rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

**Izoh**: Maqola infojournal@uniep.uz pochtasi orqali qabul qilingan va nashr etilgan.

**Note**: The article was received via the email address infojournal@uniep.uz and published.